## V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati katta va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste’mol tovarlari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o‘sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Xizmatlar sohasida 30,7 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 97,2 % ni tashkil etdi. Yangi korxona va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar ro‘yxatini kengaytirish kelgusida ish o‘rinlarini ko‘paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

**Xizmatlar sohasiga taaluqli faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni,** *birlikda*
*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 2024-yil 1-iyul holatiga*


***Savdo-15 225***


***Boshqa turdagi xizmatlar-9 624***


***Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar-3 305***


***Tashish va saqlash-945***


***Sog‘liqni saqlash-991***


***Axborot va aloqa-672***

**2024-yilning 1-iyul holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi,** *% da*
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




2024-yil 1-iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar 37,6 % tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 8,2 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,3 % ni tashkil etmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 1,7 % ga teng bo'ldi.

2024-yilning yanvar-iyunida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 16 017,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilga nisbatan o‘sish 112,9 foizni tashkil etdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi, savdo xizmatlari (26,1 %), transport xizmatlari (21,8 %), moliyaviy xizmatlar (16,2 %), ta’lim sohasidagi xizmatlar (5,4 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmati (5,0 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2024-yil yanvar-iyun oylarida ko‘rsatilgan**
**xizmatlar tarkibi, % da**



**Yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**

| | faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni | mlrd. so'm | | o'sish sur'ati, % da | yakunga nisbatan foiz hisobida |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 2024-y. | 2023-y. | | |
| **Jami xizmatlar** | **30 762** | **16 017,8** | **12 912,8** | **112,9** | **100,0** |
| *shu jumladan xizmat turlari bo'yicha:* | | | | | |
| aloqa va axborotlashtirish xizmati | 672 | 797,6 | 658,1 | 116,6 | 5,0 |
| moliyaviy xizmatlar | 209 | 2 594,2 | 2 153,2 | 112,6 | 16,2 |
| transport xizmati | 945 | 3 491,4 | 2 723,0 | 111,2 | 21,8 |
| *shu jumladan:* avtotransport xizmatlari | 629 | 3 131,7 | 2 488,2 | 110,7 | 19,6 |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari | 3 305 | 821,3 | 695,0 | 103,1 | 5,1 |
| savdo xizmatlari | 15 225 | 4 180,0 | 3 401,9 | 114,7 | 26,1 |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar | 804 | 392,4 | 306,8 | 115,9 | 2,5 |

*davomi*

| | faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni | mlrd. so'm | | o'sish sur'ati, % da | yakunga nisbatan foiz hisobida |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 2024-y. | 2023-y. | | |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar | 3 253 | 868,8 | 669,7 | 125,5 | 5,4 |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 991 | 363,2 | 264,3 | 123,4 | 2,3 |
| ijara xizmatlari | 95 | 472,3 | 369,7 | 111,5 | 2,9 |
| kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari | 189 | 468,6 | 382,7 | 109,7 | 2,9 |
| boshqa shaxsiy xizmatlar | 402 | 721,3 | 601,0 | 109,2 | 4,5 |
| memorchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 237 | 229,1 | 186,2 | 107,4 | 1,4 |
| boshqa turdagi xizmatlar | 4 435 | 617,6 | 501,2 | 105,9 | 3,9 |

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo (jami xizmatlarning 26,1 foizi) va transport (21,8 foizi) xizmatlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlar (125,5 foiz), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (123,4 foiz) o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar tarkibi,**
*(2024-yil yanvar-iyun, jamiga nisbatan % da)*



Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi savdo xizmatlari 26,1 % eng yuqori ulushni tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

**2024-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da**




- Avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

**2024-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m**

**Transport xizmatlari**
**3 491,4 mlrd. so‘m**





**Moliyaviy xizmatlar**
**2 594,2 mlrd. so‘m**

**Savdo xizmatlari**
**4 180,0 mlrd. so‘m**





**Boshqa xizmatlar**
**1 682,2 mlrd. so‘m**

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**
**797,6 mlrd. so‘m**





**Ta‘lim sohasi xizmatlari**
**868,8 mlrd. so‘m**

**Shaxsiy xizmatlar**
**721,3 mlrd. so‘m**





**Kompyuterlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar**
**468,6 mlrd. so‘m**

**Yashash va ovqatlanish xizmatlari**
**821,3 mlrd. so‘m**





**Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar**
**392,4 mlrd. so‘m**

2024-yilning yanvar-iyun oylari davomida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida transport xizmatlari eng katta ulushni egallagan bo‘lib, 3 491,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan, (2023-yilda 2 723,0 mlrd. so‘m) nisbatan 111,2 foizni tashkil etgan, shuningdek ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlar 2 594,2 mlrd. so‘m (2023-yilda 2 153,2 mlrd. so‘m), savdo xizmatlari 4 180,0 mlrd. so‘m (2023-yilda 3 401,9 mlrd. so‘m) va aloqa va axborotlashtirish xizmati 797,6 mlrd. so‘m (2023-yilda 658,1 mlrd. so‘m) hissalariga to‘g‘ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’atlari, % da**
*(2024-yil yanvar-iyun oylari uchun)*




Shu bilan birga, eng yuqori o‘sish sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (23,4 %) va ta’lim sohasidagi xizmatlar (25,5 %) qayd etildi.

Respublikamizda kredit siyosati bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o‘sishiga imkoniyat yaratdi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o‘sishi 16,2 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlari ko‘rsatish, jumladan “raqamli” banklar va chakana xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan bank bo‘linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko‘rsatish, to‘lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2024-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 2 594,2 mlrd. so‘mga teng bo‘lib, 2023-yilga nisbatan o‘sish sur’ati esa 112,6 % ni tashkil etdi.

**2024-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da**



**2024-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha xizmatlar ishlab chiqarish**

| | *Hajmi mlrd. so‘m* | *O‘sish sur’ati, % da* | *Aholi jon boshiga ming so‘mda* | *O‘sish sur’ati, % da* |
|---|---|---|---|---|
| **Samarqand viloyati** | **16 017,8** | **112,9** | **3 787,8** | **110,5** |
| Samarqand sh. | 6 880,0 | 118,2 | 11 702,6 | 115,8 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 442,7 | 112,2 | 4 655,5 | 110,7 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Oqdaryo | 520,3 | 107,6 | 2 988,7 | 105,2 |
| Bulung‘ur | 427,3 | 107,5 | 2 102,8 | 105,0 |
| Jomboy | 655,3 | 108,0 | 3 438,2 | 105,3 |
| Ishtixon | 552,4 | 107,4 | 1 992,3 | 105,1 |
| Kattaqo‘rg‘on | 563,3 | 107,5 | 1 909,0 | 105,4 |
| Qo‘shrabot | 296,9 | 107,3 | 2 083,6 | 105,2 |
| Narpay | 491,6 | 107,4 | 2 153,2 | 105,5 |
| Payariq | 669,0 | 107,7 | 2 434,6 | 105,1 |
| Pastdarg‘om | 1 084,1 | 109,5 | 2 815,0 | 107,1 |
| Paxtachi | 303,9 | 107,3 | 1 988,6 | 105,7 |
| Samarqand | 1 110,3 | 115,9 | 4 047,6 | 113,5 |
| Nurobod | 306,9 | 107,8 | 1 880,4 | 105,7 |
| Urgut | 1 071,7 | 108,4 | 1 906,2 | 105,7 |
| Toyloq | 642,1 | 109,7 | 2 888,5 | 107,0 |

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘sish sur’ati Samarqand tumani (115,9 %) va Samarqand shahriga (118,2 %) ga to‘g‘ri keldi.

Samarqand viloyati bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning ulushi Samarqand shahri (42,9 foiz), Samarqand tumani (6,9 foiz), Urgut tumani (6,7 foiz) va Pastdarg‘om (6,8 foiz) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Eng past o‘sish sur’atlari Ishtixon tumani (107,4 %), Paxtachi tumani (107,3 %) hamda Qo‘shrabot tumanlarida (107,3 %) kuzatildi.

2024-yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 787,8 ming so‘mni tashkil qildi. O‘sish sur’ati o‘tgan yilga nisbatan 110,5 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkich hududlar o‘rtasida Samarqand shahrida 11 702,6 ming so‘mdan Nurobod tumanida 1 880,4 ming so‘mgacha oraliqni tashkil etadi.

**Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o‘sish sur’ati**
*(2024-yil yanvar-iyun oylari uchun)*




Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Samarqand shahrida 11 702,6 ming so‘mga teng bo‘lib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 115,8 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o‘sishi Samarqand (113,5 %) tumanida kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning eng past ko‘rsatkichi, Urgut (1 906,2 ming so‘m), Nurobod (1 880,4 ming so‘m) tumanlarida kuzatildi.

**2024-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlari hajmi**



| | |
|---|---|
| Samarqand sh. | 1 575,9 mlrd. so‘m |
| Samarqand t. | 347,2 mlrd. so‘m |
| Pastdarg‘om | 301,4 mlrd. so‘m |
| Urgut | 241,5 mlrd. so‘m |
| Jomboy | 216,2 mlrd. so‘m |
| Oqdaryo | 183,1 mlrd. so‘m |
| Toyloq | 178,7 mlrd. so‘m |
| Kattaqo‘rg‘on t. | 176,1 mlrd. so‘m |
| Ishtixon | 169,3 mlrd. so‘m |
| Payariq | 168,7 mlrd. so‘m |
| Narpay | 143,8 mlrd. so‘m |
| Bulung‘ur | 120,4 mlrd. so‘m |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 112,4 mlrd. so‘m |
| Qo‘shrabot | 82,6 mlrd. so‘m |
| Nurobod | 81,7 mlrd. so‘m |
| Paxtachi | 81,0 mlrd. so‘m |

Savdo xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Samarqand shahrida (1 575,9 mlrd. so‘m), Samarqand (347,2 mlrd. so‘m) va Pastdarg‘om (301,4 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko‘rsatkich Paxtachi (81,0 mlrd. so‘m) tumanida qayd etildi.

2024-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 4 180,0 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 114,7 % ni tashkil etdi.

**2024-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlarining o‘sish sur’ati, *% da***




2023-yilga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o‘sish sur’ati Samarqand shahrida (127,5 %) va Samarqand tumanida (113,4 %) kuzatildi.

Eng kam o‘sish sur’ati Qo‘shrabot tumanida (102,6 %) qayd etildi.

**2024-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlari ulushi, *% da***



Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar oʻrtasida Samarqand shahri (37,7 %) va Samarqand (8,3 %) tumani egallaydi.

Shahar va tumanlar oʻrtasida eng kam ulush Paxtachi (1,9 %), Nurobod (2,0 %) va Qoʻshrabot (2,0 %) tumanlariga toʻgʻri keladi.

2024-yil yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi 3 491,4 mlrd. soʻmga teng boʻldi. Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʼati 111,2 % ni tashkil etdi.

**2024-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar boʻyicha transport xizmatlarining oʻsish surʼati va hajmi**




Transport xizmatlari hajmi boʻyicha eng yuqori koʻrsatkich Samarqand shahrida (1 187,4 mlrd. soʻm) va Samarqand tumanida (266,8 mlrd. soʻm) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi boʻyicha eng kichik koʻrsatkich Nurobod tumanida (71,1 mlrd. soʻm) qayd etildi.